LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

# BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINING O‘ZBEKISTON BOJXONA QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYASI

**Muzaffarova Xusniobod Muhiddin qizi**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “Xalqaro huquq” fakulteti 3-kurs talabasi

Elektron pochta: muzaffarovahusniobod@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Soliyev Dilshod Baxtiyor o‘g‘li**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “Xalqaro huquq va ommaviy huquq fanlari” kafedrasi katta o‘qituvchisi

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibida belgilangan maqsadlarning O‘zbekiston Respublikasi bojxona qonunchiligida aks etishi va ularni amalga oshirish mexanizmlari tadqiq etiladi. Xususan, barqaror iqtisodiy o‘sish, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, mas’uliyatli iste’mol va ishlab chiqarish, samarali davlat institutlarini shakllantirish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan maqsadlarning bojxona-huquqiy munosabatlar bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida milliy normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro bojxona va ekologik standartlar o‘rganilib, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va raqamlashtirish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, bojxona ma’muriyatchiligida shaffoflikni oshirish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalari yoritiladi. Tahlil natijasida milliy bojxona qonunchiligini Barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *barqaror rivojlanish maqsadlari, 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibi, bojxona qonunchiligi, bojxona ma’muriyatchiligi, xalqaro*

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

*savdo, bojxona tartib-taomillari, raqamli bojxona, ekologik xavfsizlik, shaffoflik, xalqaro hamkorlik.*

## ИМПЛЕМЕНТАЦИЯ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ В ТАМОЖЕННОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО УЗБЕКИСТАНА

**Музаффарова Хусниобод Мухиддин кизи**

**Студентка 3 курса факультета «Международное право» Университета мировой экономики и дипломатии**

**Электронная почта: muzaffarovahusniobod@gmail.com**

**Научный руководитель: Солиев Дилшод Бахтиёр угли, старший преподаватель кафедры «Международное право и публично-правовые дисциплины» Университета мировой экономики и дипломатии**

**Аннотация.** В статье исследуется отражение в таможенном законодательстве Республики Узбекистан целей, закрепленных в Повестке дня Организации Объединенных Наций в области устойчивого развития на период до 2030 года, а также механизмы их реализации. В частности, анализируется связь с таможенно-правовыми отношениями тех целей, которые направлены на устойчивый экономический рост, развитие инновационной инфраструктуры, ответственное потребление и производство, формирование эффективных государственных институтов и расширение международного сотрудничества. В рамках исследования изучены национальные нормативно-правовые акты, международные таможенные и экологические стандарты, освещены вопросы упрощения и цифровизации таможенных процедур, обеспечения экологической безопасности, повышения прозрачности таможенного администрирования и развития международного сотрудничества. По итогам анализа разработаны научно-

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

практические предложения по совершенствованию национального таможенного законодательства в соответствии с Целями устойчивого развития.

**Ключевые слова:** цели устойчивого развития, Повестка дня в области устойчивого развития на период до 2030 года, таможенное законодательство, таможенное администрирование, международная торговля, таможенные процедуры, цифровая таможня, экологическая безопасность, прозрачность, международное сотрудничество.

## IMPLEMENTATION OF THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS INTO THE CUSTOMS LEGISLATION OF UZBEKISTAN

**Muzaffarova Khusniobod Mukhiddin kizi**
**3rd-year student, Faculty of International Law, University of World Economy and Diplomacy**
**E-mail: muzaffarovahusniobod@gmail.com**
**Scientific supervisor: Soliyev Dilshod Bakhtiyor ugli, Senior Lecturer, Department of International Law and Public Law Disciplines, University of World Economy and Diplomacy**

**Abstract.** The article examines how the goals set out in the United Nations 2030 Agenda for Sustainable Development are reflected in the customs legislation of the Republic of Uzbekistan, together with the mechanisms for their implementation. In particular, it analyses how customs legal relations are connected with the goals aimed at sustained economic growth, the development of innovative infrastructure, responsible consumption and production, the building of

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

effective public institutions and the expansion of international cooperation. The study reviews national legal acts as well as international customs and environmental standards, and addresses the simplification and digitalisation of customs procedures, the assurance of environmental safety, greater transparency in customs administration and the development of international cooperation. On the basis of this analysis, scientific and practical proposals are developed for improving national customs legislation in line with the Sustainable Development Goals.

**Keywords:** sustainable development goals, 2030 Agenda for Sustainable Development, customs legislation, customs administration, international trade, customs procedures, digital customs, environmental safety, transparency, international cooperation.

**KIRISH.** XXI asrda barqaror rivojlanishni ta’minlash davlatlarning iqtisodiy siyosati bilan bir qatorda, milliy huquqiy tizimlar va davlat boshqaruvi institutlarini takomillashtirishni ham taqozo etmoqda. Globallashuv sharoitida xalqaro savdo hajmining ortishi, transchegaraviy iqtisodiy munosabatlarning kengayishi va ekologik xavfsizlik bilan bog‘liq muammolarning kuchayishi bojxona sohasiga nisbatan an’anaviy yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Endilikda bojxona organlari faoliyatini faqat bojxona to‘lovlarini undirish va davlatning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish bilan cheklab bo‘lmaydi. Bojxona tizimi xalqaro savdoni yengillashtirish, qonuniy tashqi iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va samarali davlat boshqaruvini ta’minlashda ham muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Ushbu jarayonda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yil 25-sentabrdagi 70/1-son rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan “2030-yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibi” [1] alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu hujjat iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanish yo‘nalishlarini o‘zaro uyg‘unlashtirgan 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadi hamda 169 ta vazifani belgilab berdi. Mazkur maqsadlar iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish bilan bir qatorda, samarali institutlarni shakllantirish, innovatsiyalarni rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasida ham Barqaror rivojlanish maqsadlarini milliy darajada amalga oshirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 83-son qarori [10] bilan 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar hamda ularni amalga oshirishning tashkiliy mexanizmlari belgilangan. Qaror davlat organlari faoliyatida barqaror rivojlanish tamoyillarini hisobga olish va tegishli vazifalar ijrosini muvofiqlashtirish uchun huquqiy asos yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasining bojxona qonunchiligi ushbu masalani o‘rganish uchun muhim huquqiy asos hisoblanadi. 2016-yil 20-yanvardagi O‘RQ-400-son Qonun bilan tasdiqlangan Bojxona kodeksi [6] tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o‘tish, bojxona to‘lovlarini undirish, bojxona rasmiylashtiruvi va nazoratini amalga oshirish hamda bojxona qonunchiligi buzilishlarining oldini olish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi. Kodeksda belgilangan huquqiy mexanizmlar barqaror rivojlanishning

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

iqtisodiy, ekologik va institutsional yo‘nalishlari bilan bog‘liq holda tahlil qilinishi mumkin.

Ayniqsa, Barqaror rivojlanish maqsadlarining 8-maqsadi (munosib mehnat va iqtisodiy o‘sish), 9-maqsadi (sanoat, innovatsiyalar va infratuzilma), 12-maqsadi (mas’uliyatli iste’mol va ishlab chiqarish), 16-maqsadi (tinchlik, adolat va samarali institutlar) hamda 17-maqsadi (barqaror rivojlanish yo‘lida hamkorlik) bojxona qonunchiligi bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu maqsadlar doirasida bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, noqonuniy tovarlar aylanmasining oldini olish, ekologik xavfsizlik talablariga rioya etish, korrupsiyaga qarshi kurashish va xalqaro bojxona hamkorligini rivojlantirish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlarining milliy bojxona qonunchiligida qay darajada aks etgani, ularni amalga oshirishga xizmat qiluvchi huquqiy mexanizmlarning mazmuni va samaradorligi hamda xalqaro maqsadlar bilan milliy huquqiy tartibga solish o‘rtasidagi mavjud muammolarni aniqlash dolzarb ilmiy masala hisoblanadi. Chunki barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish strategik hujjatlarda tegishli vazifalarni belgilash bilangina cheklanmaydi, balki ularning milliy qonunchilikda aniq huquqiy mexanizmlar orqali ifodalanishi va amaliyotda izchil amalga oshirilishini ham talab qiladi.

Maqolaning asosiy maqsadi BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarining O‘zbekiston Respublikasi bojxona qonunchiligida aks etishining huquqiy asoslari va mexanizmlarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda milliy bojxona qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati Barqaror rivojlanish maqsadlari va milliy bojxona qonunchiligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kompleks huquqiy

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

jihatdan o‘rganish hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha asoslantirilgan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

**ASOSIY QISM (MUHOKAMA VA NATIJA). Adabiyotlar tahlili.** Barqaror rivojlanish konsepsiyasi iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy farovonlik va atrof-muhitni muhofaza qilish o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga qaratilgan. Uning shakllanishida 1987-yilda BMTning Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha Butunjahon komissiyasi tomonidan tayyorlangan “Bizning umumiy kelajagimiz” ma’ruzasi muhim o‘rin tutadi. Unda barqaror rivojlanish kelajak avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlariga zarar yetkazmagan holda bugungi avlod ehtiyojlarini qondirish sifatida izohlangan.

Konsepsiya 1992-yilgi Rio-de-Janeyro konferensiyasida yanada rivojlantirildi. Keyinchalik Mingyillik rivojlanish maqsadlari xalqaro hamjamiyatning umumiy ustuvor yo‘nalishlarini belgiladi. 2015-yilda esa BMT Bosh Assambleyasining 70/1-son rezolyutsiyasi bilan “2030-yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibi” qabul qilinib, 17 ta maqsad va 169 ta vazifa belgilandi.

Kun tartibining muhim xususiyati maqsadlarning o‘zaro bog‘liq va ajralmas ekanligidir. Hujjatning 55-bandida ular integratsiyalashgan, ajralmas, global va universal xususiyatga ega ekani qayd etilgan [1]. Huquqiy jihatdan mazkur kun tartibi xalqaro shartnoma hisoblanmaydi va undagi maqsadlar o‘z-o‘zidan shartnomaviy majburiyatlarni yuzaga keltirmaydi. Biroq u davlatlarning rivojlanish siyosatini muvofiqlashtirish va milliy qonunchilikni takomillashtirish uchun muhim dasturiy asos vazifasini bajaradi.

Barqaror rivojlanish maqsadlarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish ularning mazmunini qonunlar, davlat dasturlari, strategiyalar va institutsional mexanizmlar orqali amalga oshirishni anglatadi. Bojxona qonunchiligidagi

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

implementatsiya bojxona faoliyatini iqtisodiy, ekologik va institutsional talablar bilan uyg‘unlashtirish orqali namoyon bo‘ladi.

Xalqaro savdo iqtisodiy rivojlanishning muhim omili bo‘lib, davlatlar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar va texnologiyalar almashinuvini ta’minlaydi. Biroq savdo jarayonlarining kengayishi ularni samarali, shaffof va ekologik talablarga muvofiq tartibga solishni talab qiladi. Bojxona organlari tovarlarning bojxona chegarasi orqali harakatlanishi, ularning tasnifi, kelib chiqishi, bojxona qiymati va qonuniyligini nazorat qilish orqali ushbu jarayonda muhim vazifani bajaradi.

Bojxona tartib-taomillarining murakkabligi, ortiqcha hujjat talablari va rasmiylashtirish muddatlarining uzoqligi savdo xarajatlarini oshiradi. Aksincha, tartib-taomillarni soddalashtirish va raqamlashtirish tadbirkorlik uchun qulay sharoit yaratadi. Bu holat Barqaror rivojlanishning 8 va 9-maqsadlari bilan bevosita bog‘liq. Jahon savdo tashkilotining Savdoni yengillashtirish to‘g‘risidagi bitimining 7-moddasi tovarlarni chiqarish va rasmiylashtirishni tezlashtirish, 8-moddasi chegara organlari hamkorligi, 10-moddasi esa savdo rasmiyatchiliklarini soddalashtirish masalalarini tartibga soladi [3]. O‘zbekiston JSTga a’zo bo‘lish jarayonini davom ettirayotganligi sababli ushbu bitim qoidalari milliy qonunchilikni takomillashtirish uchun xalqaro mezon sifatida baholanishi lozim.

Bojxona faoliyatining barqaror rivojlanish bilan bog‘liqligi ekologik xavfsizlikda ham namoyon bo‘ladi. Xavfli chiqindilar, kimyoviy moddalar va atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan mahsulotlarning transchegaraviy harakati tegishli nazorat mexanizmlarini talab qiladi. Bu esa 12-maqsadda belgilangan mas’uliyatli iste’mol va ishlab chiqarish tamoyillarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Bojxona organlari faoliyatining qonuniyligi, shaffofligi

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

va hisobdorligi 16-maqsad, xalqaro axborot almashinuvi va bojxona organlari o‘rtasidagi hamkorlik esa 17-maqsad bilan bog‘liq.

O‘zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishning muhim huquqiy asoslaridan biri Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 83-son qaroridir. Unda 2030-yilgacha bo‘lgan davr uchun barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari belgilangan. Qarorda bojxona organlarining ishtiroki, ayniqsa, 9 va 16-maqsadlar doirasida namoyon bo‘ladi. Jumladan, sanoat, innovatsiyalar va infratuzilmani rivojlantirish, noqonuniy transchegaraviy oqimlarning oldini olish hamda samarali davlat institutlarini shakllantirishda bojxona organlari muhim vazifalarni bajaradi.

Bojxona kodeksining 1-moddasi bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o‘tish, bojxona to‘lovlarini undirish, rasmiylashtirish va nazorat qilish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi. Kodeksning 2-moddasida xalqaro shartnomada bojxona qonunchiligidan boshqacha qoidalar nazarda tutilgan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llanilishi belgilangan [6]. Bu normalar milliy bojxona tartibga solishining umumiy huquqiy asosini tashkil etadi.

Barqaror rivojlanishning 8 va 9-maqsadlari doirasida bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va raqamlashtirish alohida ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 27-avgustdagi PF-174-son [13] Farmoni bilan 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston bojxonasi – 2030” strategiyasi tasdiqlangan. Unda bojxona ma’muriyatchiligini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va tadbirkorlar uchun qulay sharoit yaratish vazifalari belgilangan. Xususan, 2030-yilga qadar bojxona

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

rasmiylashtiruvi vaqtini ikki barobar qisqartirish va inson omilisiz rasmiylashtirish ulushini 60 foizga yetkazish maqsadlari nazarda tutilgan.

Elektron deklaratsiyalash ushbu yo‘nalishning muhim mexanizmlaridan biridir. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-iyuldagi 605-son qarori [8] tovarlarni bojxonada deklaratsiyalash tartibini, shu jumladan, elektron shaklda deklaratsiyalash va avtomatlashtirilgan rasmiylashtirish jarayonlarini belgilaydi. Bunday mexanizmlar rasmiylashtirish jarayonini tezlashtirish, hujjatlar almashinuvini soddalashtirish va inson omilini kamaytirishga xizmat qiladi.

Raqamlashtirish bilan bir qatorda xavflarni boshqarish tizimi ham muhim hisoblanadi. Bojxona kodeksining 203-moddasiga muvofiq, bojxona nazorati shakli va darajasini belgilashda xavflarni boshqarish tizimidan foydalaniladi [6]. Bu yondashuv barcha tovarlarni bir xil darajada tekshirish o‘rniga, yuqori xavfli operatsiyalarga e’tiborni kuchaytirish va qonuniy savdo jarayonlarini tezlashtirish imkonini beradi. PF-174-son Farmonda axborot tizimlarini rivojlantirish, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish va idoralararo ma’lumot almashinuvini takomillashtirish ham ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan.

12-maqsad doirasida ekologik xavfsizlikni ta’minlash bojxona organlarining muhim vazifalaridan biridir. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 16-fevraldagi 75-son qarori [9] xavfli mahsulotlar va chiqindilarni olib kirish hamda olib chiqish bilan bog‘liq tartiblarni belgilaydi. Ushbu yo‘nalishdagi nazorat mexanizmlari 2024-yil 30-dekabrdagi 916-son qaror [11] bilan ham takomillashtirilgan. Bu hujjatlar xavfli chiqindilar va ayrim kimyoviy mahsulotlar harakatini nazorat qilishda muhim huquqiy asos hisoblanadi.

Ekologik xavfsizlikni ta’minlashda bojxona organlarining ekologiya sohasidagi vakolatli organlar bilan hamkorligi, tegishli ruxsat beruvchi hujjatlarni

Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

tekshirishi va qonunchilikda belgilangan cheklovlarga rioya etilishini nazorat qilishi muhimdir. Shuningdek, Bojxona kodeksining 203-moddasidagi xavflarni boshqarish tizimidan ekologik xavfga ega tovarlarni aniqlashda samarali foydalanish mumkin. Buning uchun xavfli chiqindilar, kimyoviy moddalar va ekologik jihatdan sezgir mahsulotlarga oid xavf mezonlarini yanada takomillashtirish talab etiladi.

16-maqsad doirasida bojxona organlari faoliyatining qonuniyligi, shaffofligi va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi O‘RQ-419-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni [7] davlat organlari faoliyatida qonuniylik, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashning umumiy huquqiy asoslarini belgilaydi. Elektron deklaratsiyalash va avtomatlashtirilgan nazorat inson omilini kamaytirishga yordam beradi. Biroq raqamlashtirishning o‘zi korrupsiyaviy xavflarni to‘liq bartaraf etmaydi. Shu sababli ichki komplayens nazorati, qarorlarning elektron qaydi va shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmlari ham muhimdir.

Bu borada davlat organlari va tashkilotlarining komplayens hamda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyatiga oid 2026-yil 3-oktabrda 3950-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan namunaviy nizom [14] ham ahamiyatga ega. Ushbu hujjat ichki nazorat tuzilmalari faoliyatini tashkil etish va ularning vazifalarini belgilashga qaratilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda normativ-huquqiy tahlil, tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil va funksional yondashuv usullaridan foydalaniladi. Normativ-huquqiy tahlil orqali BMT Bosh Assambleyasining 70/1-son rezolyutsiyasi [1], O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi [6], barqaror

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlarni belgilovchi hukumat qarorlari [10] va bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirishga qaratilgan Prezident hujjatlari [12; 13] o'rganiladi.

Tizimli tahlil Barqaror rivojlanish maqsadlarining iqtisodiy, ekologik va institutsional yo'nalishlarini bojxona qonunchiligi bilan o'zaro bog'liq holda baholash imkonini beradi. Qiyosiy-huquqiy usul orqali milliy qonunchilik Jahon savdo tashkilotining Savdoni yengillashtirish to'g'risidagi bitimi [3] hamda Jahon bojxona tashkilotining Qayta ko'rib chiqilgan Kioto konvensiyasi [2] qoidalari bilan solishtiriladi. Funksional yondashuv esa bojxona organlarining savdoni yengillashtirish, xavflarni boshqarish, ekologik xavfsizlik va korrupsiyaga qarshi kurashishdagi vazifalarini baholashda qo'llaniladi. Xalqaro hujjatlarning majburiy va tavsiyaviy xususiyatlari alohida farqlanadi.

**Natijalar.** O'zbekiston bojxona qonunchiligida Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi bir qator huquqiy mexanizmlar shakllangan. Jumladan, Bojxona kodeksi, elektron deklaratsiyalash tartibi, xavflarni boshqarish tizimi, xavfli mahsulotlar va chiqindilar muomalasini tartibga soluvchi hukumat qarorlari hamda "Yangi O'zbekiston bojxonasi – 2030" strategiyasi shular jumlasidandir.

Bu mexanizmlar tahlili ularning iqtisodiy, ekologik va institutsional yo'nalishlarda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Iqtisodiy jihatdan bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va raqamlashtirish tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun qulay sharoit yaratadi. Ekologik jihatdan xavfli chiqindilar va mahsulotlar harakatini nazorat qilish atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi. Institutsional jihatdan esa shaffoflik, komplayens nazorati

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

va elektron xizmatlar davlat organlari faoliyatining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, mavjud mexanizmlarni takomillashtirish zarur bo‘lgan jihatlar ham mavjud. Birinchi muammo ekologik xavflarni bojxona nazoratiga yanada aniq integratsiya qilish bilan bog‘liq. Bojxona kodeksining 203-moddasida xavflarni boshqarish tizimi belgilangan bo‘lsa-da, ekologik xavfga ega tovarlar bo‘yicha maxsus mezonlar va xavf profillarini rivojlantirish lozim.

Ikkinchi muammo vakolatli davlat organlari o‘rtasidagi elektron axborot almashinuvining yetarli darajada uyg‘unlashtirilmaganligi bilan bog‘liq. Bojxona rasmiylashtiruvida ekologiya, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya va fitosanitariya organlari hujjatlari muhim ahamiyatga ega. Ushbu organlarning axborot tizimlari o‘rtasida integratsiya yetarli bo‘lmasa, hujjatlarni qo‘lda tekshirish yoki ma’lumotlarni takroran talab qilish holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Uchinchi muammo bojxona faoliyatining barqaror rivojlanishga qo‘shayotgan hissasini baholash bilan bog‘liq. Natijadorlikni faqat fiskal ko‘rsatkichlar, rasmiylashtirilgan deklaratsiyalar va aniqlangan huquqbuzarliklar orqali baholash yetarli emas. Iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ekologik xavfsizlik, xizmatlarning qulayligi, shaffoflik va idoralararo hamkorlik natijalarini ham hisobga olish lozim.

To‘rtinchi muammo korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish mexanizmlarini doimiy takomillashtirish zaruratidir. Elektron tizimlar inson omilini kamaytiradi, biroq mansabdor shaxslar qarorlarining asoslanganligi, ichki nazorat samaradorligi va tadbirkorlarning shikoyat qilish imkoniyatlari ham ta’minlanishi kerak.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Xalqaro standartlar ushbu muammolarni bartaraf etishda muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, Jahon bojxona tashkilotining Qayta ko‘rib chiqilgan Kioto konvensiyasi bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish, shaffoflik, axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda xavflarni boshqarish tamoyillarini mustahkamlaydi [2]. O‘zbekiston mazkur konvensiyaga 2021-yil 16-fevralda qo‘shilgan va u mamlakatimiz uchun 2021-yil 16-maydan kuchga kirgan.

JSTning Savdoni yengillashtirish to‘g‘risidagi bitimi ham bojxona qonunchiligini takomillashtirishda muhim xalqaro mezondir [3]. Biroq O‘zbekiston JSTga a’zo bo‘lish jarayonini davom ettirayotganligi sababli, mazkur bitim qoidalarini amaldagi shartnomaviy majburiyat sifatida emas, balki milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish vositasi sifatida baholash lozim.

Ekologik yo‘nalishda Monreal protokoli va Bazel konvensiyasi kabi xalqaro hujjatlar ham muhim ahamiyatga ega [4; 5]. Monreal protokoli ozon qatlamini yemiruvchi moddalar bilan bog‘liq savdoni tartibga solishga, Bazel konvensiyasi esa xavfli chiqindilarning transchegaraviy harakatini nazorat qilishga qaratilgan. Ushbu hujjatlar talablarini milliy bojxona amaliyotida qo‘llashda O‘zbekistonning tegishli xalqaro hujjatlar bo‘yicha ishtirokchilik maqomi va majburiyatlari hisobga olinishi lozim.

**Muhokama.** Tadqiqot natijalari Barqaror rivojlanish maqsadlarining O‘zbekiston bojxona qonunchiligida iqtisodiy, ekologik va institutsional yo‘nalishlar bo‘yicha huquqiy ifodasini topganini ko‘rsatadi. Biroq mazkur mexanizmlarning samaradorligini oshirish uchun ularni o‘zaro muvofiqlashtirish va amaliy natijadorligini baholash zarur.

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

Birinchidan, bojxona sohasida Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish bo‘yicha 2027–2030-yillarga mo‘ljallangan idoralararo chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Unda 8, 9, 12, 16 va 17-maqsadlar bo‘yicha aniq vazifalar, mas’ul organlar, ijro muddatlari va natijadorlik ko‘rsatkichlari belgilanishi lozim. Dastur “Yangi O‘zbekiston bojxonasi – 2030” strategiyasini takrorlamasdan, uning Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan bog‘liqligini kuchaytirishi kerak.

Ikkinchidan, Bojxona kodeksining 203-moddasida nazarda tutilgan xavflarni boshqarish tizimida ekologik xavf mezonlarini aniqlashtirish taklif etiladi. Bojxona qo‘mitasi ekologiya sohasidagi vakolatli organlar va Bojxona markaziy laboratoriyasi bilan hamkorlikda xavfli chiqindilar, kimyoviy moddalar hamda ekologik jihatdan xavfli mahsulotlar bo‘yicha alohida xavf profillarini ishlab chiqishi lozim. Bunda tovarning TIF TN kodi, kimyoviy tarkibi, kelib chiqish mamlakati va ruxsat beruvchi hujjatlari hisobga olinishi kerak.

Uchinchidan, “Yagona darcha” tizimida idoralararo elektron ma’lumot almashinuvini kengaytirish zarur. Ekologiya, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya va fitosanitariya hujjatlarini tegishli vakolatli organlarning elektron bazalari orqali tekshirish rasmiylashtirish muddatlarini qisqartiradi. Shuningdek, davlat organlarida mavjud ma’lumotlarni tadbirkorlardan takroran talab qilish holatlarini kamaytirish imkonini beradi. Bunda axborotdan foydalanish vakolatlari va ma’lumotlarni himoya qilish tartibi aniq belgilanishi lozim.

To‘rtinchidan, bojxona organlari faoliyatida shaffoflik va korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini kuchaytirish kerak. Buning uchun ichki komplayens nazoratini rivojlantirish, bojxona nazorati va rasmiylashtirish jarayonlarida qabul qilingan qarorlarning elektron qaydini yuritish,

LAW, POLICY AND SOCIETY ПРАВО, ПОЛИТИКА И ОБЩЕСТВО - HUQUQ, SIYOSAT VA JAMIYAT
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

tadbirkorlarning shikoyat qilish imkoniyatlarini kengaytirish va murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari yuzasidan ochiq hisobotlarni e’lon qilish taklif etiladi.

Beshinchidan, xalqaro bojxona va ekologik hamkorlikni amaliy jihatdan rivojlantirish zarur. Qo‘shni davlatlar bilan xavfli chiqindilar, kimyoviy moddalar va maxsus tartibga solinadigan mahsulotlar harakati yuzasidan tezkor axborot almashish mexanizmlarini takomillashtirish lozim. Shuningdek, bojxona xodimlarining xalqaro standartlar va ekologik konvensiyalar bo‘yicha malakasini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Oltinchidan, bojxona organlari faoliyatining Barqaror rivojlanish maqsadlariga qo‘shayotgan hissasini baholash uchun maxsus indikatorlar tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Unda bojxona rasmiylashtiruvi uchun sarflanadigan o‘rtacha vaqt, elektron xizmatlar ulushi, takroran talab qilinmaydigan hujjatlar soni, ekologik xavfli tovarlar bilan bog‘liq aniqlangan qonunbuzarliklar, shikoyatlarni ko‘rib chiqish muddatlari va xalqaro axborot almashinuvi natijalari hisobga olinishi mumkin. Bunday monitoring bojxona tizimining iqtisodiy, ekologik va institutsional samaradorligini baholash imkonini beradi.

Taklif etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur moliyaviy va tashkiliy ta’minotni ham nazarda tutish lozim. Elektron tizimlarni integratsiya qilish, laboratoriya imkoniyatlarini kengaytirish va xodimlar malakasini oshirish bilan bog‘liq xarajatlar davlat byudjeti, qonunchilikda nazarda tutilgan byudjetdan tashqari mablag‘lar hamda xalqaro tashkilotlarning texnik ko‘magi hisobidan moliyalashtirilishi mumkin.

**XULOSA.** Tadqiqot natijasida Barqaror rivojlanish maqsadlari va O‘zbekiston Respublikasi bojxona qonunchiligi o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Bojxona organlari xalqaro savdoni yengillashtirish, qonuniy

iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, ekologik xavfli mahsulotlar harakatini nazorat qilish va davlat boshqaruvida shaffoflikni ta’minlash orqali barqaror rivojlanish jarayonida muhim vazifani bajaradi.

O‘zbekiston qonunchiligida ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi huquqiy mexanizmlar, jumladan, Bojxona kodeksi, xavflarni boshqarish tizimi, elektron deklaratsiyalash, xavfli mahsulotlar va chiqindilar muomalasini tartibga soluvchi hukumat qarorlari, korrupsiyaga qarshi qonunchilik hamda “Yangi O‘zbekiston bojxonasi – 2030” strategiyasi shakllangan.

Shu bilan birga, ekologik xavf mezonlarini bojxona nazoratiga integratsiya qilish, vakolatli organlar o‘rtasidagi elektron axborot almashinuvini kengaytirish, komplayens nazoratini kuchaytirish va natijadorlik indikatorlarini joriy etish zarur. Maqolada ilgari surilgan takliflarning izchil amalga oshirilishi bojxona tizimining iqtisodiy, ekologik va institutsional vazifalarini Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Barqaror rivojlanish maqsadlarini O‘zbekiston bojxona qonunchiligiga samarali integratsiya qilish bojxona tizimining an’anaviy fiskal va nazorat vazifalarini zamonaviy iqtisodiy, ekologik hamda institutsional talablar bilan uyg‘unlashtirishni talab etadi. Bu jarayon milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va davlat boshqaruvi samaradorligini kuchaytirish uchun muhim ahamiyatga ega.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. United Nations General Assembly. Transforming our World: the 2030 Agenda for Sustainable Development. Resolution A/RES/70/1 of 25 September 2015. https://sdgs.un.org/2030agenda

Issue - 11(2026) / ISSN 3030-3052 Available at www.uznauka.uz

2. World Customs Organization. International Convention on the Simplification and Harmonization of Customs Procedures (Revised Kyoto Convention), 1999. https://www.wcoomd.org/en/topics/facilitation/instrument-and-tools/conventions/pf_revised_kyoto_conv/kyoto_new.aspx

3. World Trade Organization. Agreement on Trade Facilitation, 2014. https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/tfa_e.htm

4. Basel Convention on the Control of Transboundary Movements of Hazardous Wastes and Their Disposal, 1989. https://www.basel.int/portals/4/basel%20convention/docs/text/baselconventiontext-e.pdf

5. Montreal Protocol on Substances that Deplete the Ozone Layer, 1987. https://ozone.unep.org/treaties/montreal-protocol

6. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. 2016-yil 20-yanvar, O‘RQ-400-son. https://lex.uz/docs/-2876354

7. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni. 2017-yil 3-yanvar, O‘RQ-419-son. https://lex.uz/docs/-3088008

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-iyuldagi 605-son qarori. https://lex.uz/ru/docs/-3844549

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 16-fevraldagi 75-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-5293781

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 83-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-5870397

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrdagi 916-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-7308091

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi PQ-122-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-7452043

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 27-avgustdagi PF-174-son Farmoni. https://www.lex.uz/uz/docs/-8444993

14. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari faoliyatiga oid namunaviy nizom. 2026-yil 3-oktabrda 3950-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan. https://lex.uz/uz/docs/-8519451